

Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi  
Andijon davlat universiteti  
mustaqil tatqiqotchisi

## SUD-PSIXOLOG EKSPERTLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sud-psixologik ekspertlarni tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishning psixologik asoslari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim, refleksiv o'rganish hamda raqamli ta'lim muhitining shaxs kasbiy rivojlanishiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** sud psixologiyasi, sud-psixologik ekspert, innovatsion ta'lim texnologiyalari, kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, refleksiya.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ СУДЕБНЫХ ПСИХОЛОГОВ

**Аннотация.** В данной статье анализируются психологические основы внедрения инновационных образовательных технологий в процесс подготовки судебных психологов с научной, теоретической и практической точек зрения. В частности, освещается влияние компетентностного подхода, конструктивизма, обучения на основе деятельности, рефлексивного обучения и цифровой образовательной среды на профессиональное развитие личности. Исследование обосновывает роль инновационных технологий в развитии профессиональных компетенций судебных психологов на основе современных педагогических и психологических подходов.

**Ключевые слова:** судебная психология, эксперт-судебный психолог, инновационные образовательные технологии, компетентность, профессиональная подготовка, рефлексия.

## PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TRAINING FORENSIC PSYCHOLOGIST EXPERTS

**Annotation.** This article analyzes the psychological foundations of the introduction of innovative educational technologies in the process of training forensic psychological experts from a scientific, theoretical and practical perspective. In particular, the impact of the competency approach, constructivism, activity-based learning, reflexive learning and the digital learning environment on the professional development of an individual is highlighted. The study substantiates the role of innovative technologies in the development of professional competencies of forensic psychological experts based on modern pedagogical and psychological approaches.

**Keywords:** forensic psychology, forensic psychological expert, innovative educational technologies, competence, professional training, reflection.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida sud-psixologik ekspert faoliyatiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarimoqda. Zamonaviy sud-huquq tizimida inson omili, shaxs psixologiyasi va xulq-atvorini ilmiy asosda baholash muhim ahamiyat kasb etib, sud jarayonlarida psixologik xulosalarning ilmiy asoslanganligi, xolisligi va ishonchliligi ekspertning kasbiy tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, sud eksperti xulosasi ilmiy asoslangan, tekshiriladigan va ishonchli bo'lishi shart. Mazkur qonunning tegishli moddalarida sud ekspertining kasbiy kompetensiyasi, maxsus bilimlarga egaligi hamda zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanish majburiyati belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksi normalarida sud-psixologik ekspert xulosasining dalil sifatidagi o'rni alohida qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qarorlarida kadrlar tayyorlash jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari, simulyatsion va kompetensiyaviy yondashuvlarni keng qo'llash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan qarorlarda mutaxassislarining amaliy ko'nikmalari, tahliliy fikrlashi va kasbiy mas'uliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Sud-psixolog ekspertlarni tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish — masofaviy ta'lim, virtual sud jarayonlari, keys-stadi, muammoli vaziyatlar tahlili, psixodiagnostik dasturiy vositalar va raqamli test tizimlarini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Bu esa ekspertlarning kasbiy kompetensiyasini, etik-me'yoriy mas'uliyatini va xolis qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, sud-psixolog ekspertlarni tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki sud ekspertizasi faoliyatining qonuniyligi, adolatliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashda muhim omil bo'lib, dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro standartlar (kompetensiyaviy model, dalillarga asoslangan amaliyot, uzluksiz kasbiy rivojlanish) sud-psixologik ekspertlarni tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar, tanqidiy tafakkur, kasbiy refleksiya va etik mas'uliyatni shakllantirishni talab etadi.

Sud psixolog ekspertlarini tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalari tushunchasi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari — bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan, shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv va raqamli vositalarga asoslangan pedagogik echimlar majmuidir. Sud psixolog ekspertlarini tayyorlashda quyidagi texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

Muammoli va loyihaviy ta'lim; Muammoli va loyihaviy ta'lim sud-psixolog ekspertlarni tayyorlash jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini, ilmiy tahlil qilish qobiliyatini hamda kasbiy mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya asosida ta'lim oluvchilar real sud-amaliyotida uchraydigan murakkab psixologik vaziyatlar bilan ishlashga yo'naltiriladi. Muammoli vaziyatlar orqali talabalar shaxs psixologiyasi, motivlar, affektiv holatlar va xulq-atvor determinantlarini aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar ishlab chiqadilar.

Loyihaviy ta'lim esa sud-psixologik ekspertiza bo'yicha individual yoki jamoaviy loyihalarni ishlab chiqish, masalan, ekspert xulosasi modelini yaratish, psixodiagnostik protokollarni ishlab chiqish orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu yondashuv ekspertlarning tadqiqot olib borish, hujjatlashtirish va xulosa chiqarish malakalarini mustahkamlaydi.

Keys-stadi (case-study) metodi; Keys-stadi metodi sud-psixolog ekspertlarni tayyorlashda eng samarali interaktiv ta'lim usullaridan biri hisoblanadi. Mazkur metod real yoki modellashtirilgan sud ishlariga asoslanib, ekspertiza jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilishni nazarda tutadi. Talabalar jinoyat, fuqarolik yoki ma'muriy ishlar doirasida psixologik baholash talab etiladigan holatlarni o'rganadilar. Keys-stadi orqali talabalar psixologik diagnostika vositalarini tanlash, olingan natijalarni talqin qilish va ularni huquqiy normalar bilan uyg'unlashtirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ushbu metod sud-psixolog ekspert xulosasining xolisligi, asoslanganligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Simulyatsiya va rolli o'yinlar; Simulyatsiya va rolli o'yinlar sud-psixolog ekspertlarning amaliy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiya yordamida sud jarayoni, tergov harakatlari yoki ekspertiza o'tkazish jarayoni sun'iy muhitda modellashtiriladi. Talabalar sud-psixolog eksperti, sudya, tergovchi yoki ishtirokchi shaxs rolini bajarish orqali real vaziyatlarga yaqin sharoitda tajriba orttiradilar. Rolli o'yinlar ekspertlarning kommunikativ kompetensiyasi, stressga chidamliligi va etik me'yorlarga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa sud jarayonlarida ekspertning professional xulq-atvori va xolisligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Masofaviy va gibril ta'lim platformalari; Masofaviy va gibril ta'lim platformalari sud-psixolog ekspertlarni tayyorlash jarayonida ta'limning uzluksizligini va moslashuvchanligini ta'minlaydi. Raqamli ta'lim muhitida video-ma'ruzalar, onlayn seminarlar, vebinarlar va interaktiv topshiriqlar orqali nazariy bilimlar samarali etkaziladi. Gibril ta'lim modeli nazariy mashg'ulotlarni masofaviy, amaliy mashg'ulotlarni esa an'anaviy shaklda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa sud-psixolog ekspertlarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi hamda zamonaviy raqamli kompetensiyalarni shakllantiradi.

Raqamli test va diagnostik vositalar. Raqamli test va psixodiagnostik vositalar sud-psixolog ekspertlarni tayyorlashda ilmiy aniqlik va ishonchlilikni oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy kompyuterlashtirilgan testlar, psixologik baholash dasturlari va ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish tizimlari ekspertiza jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Mazkur vositalar yordamida shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvor xususiyatlari aniq baholanadi, natijalar esa statistik jihatdan qayta ishlanadi. Bu esa sud-psixolog ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligini kuchaytirib, inson omiliga bog'liq subyektiv xatolarni kamaytiradi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining psixologik asoslari

Innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish jarayoni ma'lum psixologik nazariy va metodologik asoslarga tayanadi. Sud psixolog ekspertlarini tayyorlashda ushbu texnologiyalar nafaqat bilimlarni etkazish, balki talabalarda kasbiy tafakkur, analitik fikrlash, xolislik va mas'uliyat kabi muhim psixologik sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon konstruktivizm nazariyasi, faoliyat nazariyasi hamda reflektiv yondashuv bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Konstruktivizm nazariyasi Konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, bilimlar o'qituvchi tomonidan tayyor shaklda uzatilmaydi, balki talabaning faol bilish jarayoni davomida individual tajribasi, mavjud bilimlari va ijtimoiy o'zaro ta'sirlar asosida shakllanadi. Ushbu yondashuv sud psixolog ekspertlarini tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki sud-psixologik ekspertiza jarayoni tayyor qoliplarga emas, balki har bir holatning psixologik, ijtimoiy va huquqiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga asoslanadi. Konstruktivistik yondashuv asosida real sud ishlaridan olingan vaziyatlar, keys-stadilar va muammoli topshiriqlar orqali talabalar psixologik bilimlarni mustaqil ravishda "konstruksiya" qiladilar. Bu esa sud psixolog ekspertlarida mustaqil qaror qabul qilish, dalillarni tanqidiy tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Faoliyat nazariyasi Faoliyat nazariyasiga ko'ra, shaxsning psixik rivojlanishi va kasbiy kompetensiyalarining shakllanishi bevosita faoliyat jarayoni bilan bog'liqdir. Sud psixolog ekspertlarni tayyorlashda mazkur nazariya ta'lim jarayonini kasbiy faoliyatga maksimal darajada yaqinlashtirishni talab etadi. Nazariy bilimlar faqat amaliy faoliyat bilan uyg'unlashgan taqdirdagina barqaror va samarali natija beradi.

Simulyatsion mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, virtual sud jarayonlari va ekspertiza modellaridan foydalanish faoliyat nazariyasining amaliy ifodasi hisoblanadi. Ushbu usullar orqali talabalar real sud muhitida yuzaga keladigan psixologik holatlarni baholash, ekspert xulosasini rasmiylashtirish va professional etik me'yorlarga rioya qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Natijada, sud psixolog ekspertlarning kasbiy tayyorgarligi va amaliy kompetensiyasi sezilarli darajada oshadi.

Refleksiv yondashuv Refleksiv yondashuv sud psixolog ekspertining kasbiy etukligini shakllantirishda muhim psixologik asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv shaxsning o'z faoliyatini tahlil qila olish, o'z xatti-harakatlari va qarorlarini tanqidiy baholash hamda professional xatolarni anglab, ularni bartaraf etish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Sud psixolog ekspertlari uchun refleksiya jarayoni ayniqsa muhim bo'lib, u ekspert xulosalarining xolisligi, aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Refleksiv kundaliklar yuritish, portfoliolar shakllantirish, guruhviy muhokamalar va tahliliy seminarlar orqali talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini baholab boradilar. Bu esa ularning professional o'sishi, mas'uliyat hissi va kasbiy ongining rivojlanishiga zamin yaratadi..

Zamonaviy xalqaro amaliyotda sud-psixologik ekspertlarni tayyorlash jarayoni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilib, ushbu yondashuv mutaxassisning faqat nazariy bilimlarga ega bo'lishini emas, balki ularni real kasbiy faoliyatda samarali qo'llay olish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Kompetensiyaviy model sud-psixolog ekspertning professional tayyorgarligini tizimli va uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ta'lim natijalarini aniq va o'lchab bo'ladigan ko'rsatkichlar orqali baholash imkonini beradi. Mazkur model doirasida sud-psixolog ekspert faoliyatining asosini tashkil etuvchi bir qator muhim kompetensiyalar shakllantiriladi.

Diagnostik va ekspertlik kompetensiyasi Diagnostik va ekspertlik kompetensiyasi sud-psixolog ekspertning shaxs psixologik holatini ilmiy asosda baholash, mos psixodiagnostik metodlarni tanlash va ularni to'g'ri qo'llash qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya ekspertiza jarayonida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni huquqiy kontekstda talqin etish va asoslangan ekspert xulosasini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari, xususan, keys-stadi, simulyatsion mashg'ulotlar va raqamli diagnostik vositalar orqali mazkur kompetensiyani amaliy jihatdan rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Etik-huquqiy kompetensiya, Sud-psixolog ekspert faoliyatida etik va huquqiy me'yorlarga qat'iy rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Etik-huquqiy kompetensiya ekspertning kasbiy faoliyatida xolislik, maxfiylik, inson huquqlarini hurmat qilish hamda qonun hujjatlariga muvofiq harakat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari yordamida real sud vaziyatlariga asoslangan muammoli topshiriqlar va rolli o'yinlar orqali talabalar murakkab etik dilemmalarni tahlil qilish va qonuniy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Kommunikativ kompetensiya sud-psixolog ekspertning sud jarayonida, tergov organlari va boshqa mutaxassislar bilan samarali muloqot olib borish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ekspert xulosalarini aniq, tushunarli va asoslangan tarzda bayon etish, savollarga mantiqiy javob berish va professional muloqot madaniyatiga rioya qilish mazkur kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridir. Simulyatsion sud jarayonlari, munozaralar va guruhviy muhokamalar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Stressga chidamlilik va emotsional barqarorlik Sud-psixolog ekspert faoliyati yuqori darajadagi psixoemotsional zo'riqish bilan bog'liq bo'lib, stressga chidamlilik va emotsional barqarorlik muhim kasbiy sifatlar hisoblanadi. Ushbu kompetensiya murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda hissiy muvozanatni saqlash, professional qarorlarni hissiyotlardan holi holda qabul qilish imkonini beradi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarida qo'llaniladigan treninglar, rolli o'yinlar va refleksiv mashg'ulotlar orqali talabalar o'z emotsional holatini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Raqamli va axborot kompetensiyasi, Raqamli transformatsiya sharoitida sud-psixolog ekspertning raqamli va axborot kompetensiyasiga ega bo'lishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu kompetensiya raqamli psixodiagnostik dasturlar, ma'lumotlar bazalari, onlayn ta'lim platformalari va axborot xavfsizligi vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali talabalar zamonaviy raqamli vositalardan foydalangan holda ekspertiza jarayonini tashkil etish va natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Kompetensiyalarning integrativ rivojlanishi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari yuqorida qayd etilgan kompetensiyalarni alohida-alohida emas, balki kompleks va integrativ tarzda

rivojlantirish imkonini beradi. Ta'lim jarayonining bunday tashkil etilishi sud-psixolog ekspertlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlab, ularning ilmiy asoslangan, xolis va ishonchli ekspert xulosalarini tayyorlash salohiyatini oshiradi

O'tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, sud-psixolog ekspertlarni tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan tizimli foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, mazkur texnologiyalar talabalarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirib, ularning o'quv jarayoniga faol jalb etilishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar, interaktiv mashg'ulotlar va raqamli vositalarning qo'llanilishi talabalar tomonidan bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari sud-psixolog ekspertlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, simulyatsiya va keys-stadi metodlari real sud amaliyotiga yaqinlashtirilgan ta'lim muhitini yaratib, talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuvchanligini oshiradi. Ushbu metodlar orqali talabalar murakkab sud-psixologik vaziyatlarni tahlil qilish, psixodiagnostik natijalarni huquqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirish va ekspert xulosalarini asoslash ko'nikmalarini egallaydilar.

Shuningdek, tadqiqot davomida simulyatsion mashg'ulotlar sud-psixolog ekspertlarning kommunikativ kompetensiyasi, stressga chidamliligi va emotsional barqarorligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Sud jarayonlarini modellashtirish orqali talabalar professional rolni anglab etadilar, bu esa ularning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, talabalar o'zlarini kelajakdagi sud-psixolog eksperti sifatida anglab, kasbiy mas'uliyat va etik me'yorlarga nisbatan ongli munosabatni rivojlantiradilar.

Muhokama jarayonida olingan natijalar xalqaro ilmiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, innovatsion ta'lim texnologiyalarining sud-psixolog ekspertlarni tayyorlashdagi ustuvor ahamiyati tasdiqlandi. Ta'lim jarayonining innovatsion asosda tashkil etilishi ekspertlarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy tayyorgarligini, refleksiv fikrlashini va kasbiy etukligini ta'minlaydi.

Umuman olganda, innovatsion ta'lim texnologiyalarini sud-psixolog ekspertlarni tayyorlash tizimiga joriy etish kasbiy kompetensiyalarning kompleks rivojlanishini ta'minlab, sud ekspertizasi faoliyatining ilmiy asoslanganligi, xolisligi va ishonchligini oshirishga xizmat qiladi

Xulosa qilib aytganda, sud psixolog ekspertlarini tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish psixologik jihatdan puxta asoslangan, ilmiy-nazariy va amaliy samaradorlikka ega bo'lgan muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak sud-psixolog ekspertlarning nafaqat nazariy bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham izchil rivojlantiradi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak ekspertlarda diagnostik va ekspertlik kompetensiyalari, etik-huquqiy mas'uliyat, kommunikativ malakalar, stressga chidamlilik va emotsional barqarorlik kabi muhim kasbiy sifatlarni shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, simulyatsion mashg'ulotlar, keys-stadi metodlari va refleksiv yondashuvlar orqali talabalar real sud amaliyotiga moslashadi, professional rolni anglab etadi hamda kasbiy identifikatsiya jarayoni kuchayadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar sud psixolog ekspertlarning refleksiv tafakkurini rivojlantirib, ularning o'z kasbiy faoliyatini tanqidiy baholash, xatolarni anglash va ularni bartaraf etish qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa ekspert xulosalarining xolisligi, ilmiy asoslanganligi va ishonchligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Etik mas'uliyatning mustahkamlanishi esa sud-psixolog ekspert faoliyatida inson huquqlarini hurmat qilish, maxfiylik va adolat tamoyillariga rioya etishni ta'minlaydi. Umuman olganda, sud psixolog ekspertlarini tayyorlash tizimida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish sud ekspertizasi faoliyatining sifatini oshirish, malakali va raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash hamda sud-huquq tizimining adolatligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va raqamlashtirishga oid qarorlari va farmonlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirishga oid qarorlari.
7. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi.
8. Karimova V.M. Yuridik psixologiya asoslari. – Toshkent.
9. Davletshin M.G'. Sud psixologiyasi. – Toshkent.
10. Askarov I.B. Psixodiagnostika va psixologik baholash metodlari. – Toshkent.
11. Немов Р.С. Психология. – Москва: Владос.
12. Еникеев М.И. Юридическая психология. – Москва: Норма.
13. Кудрявцев В.Н. Судебная экспертиза и психология личности. – Москва.
14. Gudjonsson, G. H. (2018). *The Psychology of Interrogations and Confessions*. Wiley.
15. Goldstein, A. M. (2017). *Forensic Psychology: Emerging Topics and Expanding Roles*. Wiley.